

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AQLIY RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Baxriddinova Madina Sadriddin qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Maktabgach ta'lim

yo'nalishi 3-bosqich talabasi

baxriddinovam60@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanish jarayonining nazariy asoslari, tadqiqotda bolalarning bilish, anglash faoliyatini shakllantirishda psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri tahlil qilinadi. Aqliy rivojlanishning mazmuni, bosqichlari hamda ularni rivojlantirishda o'yin, mashg'ulot va tajribaviy faoliyatlarning ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida bolalarning tafakkuri, xotirasi, diqqati, e'tibori, idroki hamda nutqini rivojlantirish bo'yicha ilg'or g'oyalar tahlil etilgan. Maqolada bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlovchi didaktik yondashuvlar, pedagogik shart-sharoitlar va samarali metodlar nazariy jihatdan asoslab beriladi. Natijada, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning aqliy salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh, aqliy rivojlanish, kognitiv nazariya, Vygotskiy nazariyasi, yaqin rivojlanish zonasi, Piage nazariyasi, tafakkur, bilish jarayonlari, aqliy tarbiya.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы процесса психического развития детей дошкольного возраста, взаимодействие психолого-педагогических и социальных факторов в

формировании познавательно-перцептивной деятельности детей в процессе исследования. Обосновываются содержание, этапы психического развития и значение игр, упражнений и экспериментальной деятельности в их развитии. Также анализируются передовые представления в современных педагогических и психологических науках о развитии мышления, памяти, внимания, восприятия и речи детей. В статье теоретически обосновываются дидактические подходы, педагогические условия и эффективные методы, обеспечивающие психическое развитие детей. В результате разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию психического потенциала детей в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова: *Дошкольный возраст, психическое развитие, когнитивная теория, теория Выготского, зона ближайшего развития, теория Пиаже, мышление, познавательные процессы, умственное воспитание.*

THEORETICAL BASIS OF MENTAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

Abstract: *This article analyzes the theoretical foundations of the process of mental development of preschool children, the interaction of psychological, pedagogical and social factors in the formation of children's cognitive and perceptual activity in the study. The content, stages of mental development and the importance of games, exercises and experimental activities in their development are substantiated. Also, advanced ideas in modern pedagogical and psychological sciences on the development of children's thinking, memory, attention, perception and speech are analyzed. The article theoretically substantiates didactic approaches, pedagogical conditions and effective methods that ensure the mental development of children. As a result, scientific and practical recommendations have been developed to improve the mental potential of children in preschool educational organizations.*

Keywords: *Preschool age, mental development, cognitive theory, Vygotsky's theory, zone of proximal development, Piaget's theory, thinking, cognitive processes, mental education.*

«Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q», – deydi Shavkat Mirziyoyev.

Men birinchi bo'lib Prezidentimizning so'zlariga to'xtalishni xohladim, chunki bu so'zlar biz yoshlar uchun juda ham katta bir e'tibor va motivatsiya deb o'ylayman. Maktabgacha yosh – inson shaxsiyatining poydevori shakllanadigan, ayniqsa, aqliy salohiyatining jadal o'sish davri hisoblanadi. Shu sababli, bolalarni maktabga tayyorlash va ularning intellektual imkoniyatlarini maksimal darajada ochish uchun ushbu davrdagi aqliy rivojlanishning nazariy asoslarini chuqur tushunish muhimdir. Ushbu maqola psixologiya va pedagogikadagi asosiy nazariyalarga tayangan holda, maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy rivojlanishining mexanizmlari, shart-sharoitlari va ularni qo'llab-quvvatlash yo'llarini tahlil qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishini tushuntirib beruvchi eng fundamental nazariyalar J.Piage va L.S.Vigotskiyga tegishlidir. Jan Piagening Kognitiv Rivojlanish Nazariyasi. Shveytsariyalik psixolog Jan Piage bolalarning aqliy rivojlanishini bosqichma-bosqich o'tuvchi jarayon sifatida ko'radi. Maktabgacha yosh asosan (taxminan 2 yoshdan 7 yoshgacha) ga to'g'ri keladi. Ramziy fikrlashning paydo bo'lishi (so'zlar, tasvirlar orqali ifodalash), tilning rivojlanishi, ammo fikrlashda hali egotsentrizm (dunyoga faqat o'z nuqtai nazaridan qarash), markazlashish (bir vaziyatning faqat bir tomoniga e'tibor berish) va mantiqiy teskari amallarni bajara olmaslik kabi cheklovlar mavjud. Jan Piage nazariyasiga ko'ra, bolalar bilimni faol harakatlar (manipulyatsiya) va atrof-muhitni o'rganish orqali o'zlari quradilar(konstruktivizm) deb aytib o'tadi. Lev

Vigotskiyning Sotsial-Madaniy Nazariyasi. Rossiyalik psixolog Lev Vigotskiy esa aqliy rivojlanishni ijtimoiy o'zaro munosabatlar kontekstida ko'radi. Yaqin Rivojlanish Zonasi : Bu bolaning mustaqil ravishda qila oladigan ishlari va kattalar yoki tengdoshlari yordamida qila oladigan ishlari o'rtasidagi masofa. Vigotskiyning fikricha, samarali ta'lim aynan shu Yaqin Rivojlanish Zonasida amalga oshirilishi kerak deb aytib o'tadi. Maktabgacha ta'lim yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta'limi bo'ladi. Hayotiy tajribalarning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda analitik-sintetik tafakkur faoliyati tarkib toptiriladi bu hodisalarni, voqealarni, chuqur anglab olish, ularni muhim bo'lgan va muhim bo'lmagan tomonlarini ajratishga o'rgatish lozim.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni aqliy rivojlanishining nazariy asoslari pedagogik ta'sir ostida kechadigan, ijtimoiy muhit va faoliyat (o'yin, bilim) orqali shakllanadigan bilim, ko'nikma, malaka va bilishga bo'lgan qiziqishlar majmuasini nazarda tutadi. Bu jarayon bolani maktabga muvaffaqiyatli tayyorlashning asosiy shartlaridan biridir deb ko'rsatib o'tsak bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish kerakki maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi — bu shaxsning kelajakdagi muvaffaqiyatiga poydevor qo'yuvchi, tizimli va bosqichli jarayon hisoblanib, u zamonaviy psixologik-pedagogik nazariyalarga asoslanadi.

Asosiy fikrimiz shundaki, bola passiv idrok etuvchi sub'ekt emas, balki tashqi-muhitni faol o'rganuvchi va o'z bilimlarini mustaqil barpo etuvchi. Shu bilan birga, bu jarayon tashqi muhit, ayniqsa, kattalar bilan bo'lgan ijtimoiy muloqot orqali tezlashadi va chuqurlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019 yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori. – Toshkent, 2019 yil.
3. "Bolalar psixologiyasi" (The Psychology of the Child, 1966 - B. Inhelder bilan hamkorlikda)
4. "Воображение и творчество в детском возрасте" (Bolalik davridagi tasavvur va ijodkorlik) (1930)
5. Elkonin D.B. Bola o'yini va uning psixologik mazmuni. – Moskva, 1978.
6. Jalilova N., Usmonxo'jayeva M. Maktabgacha ta'lim psixologiyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
7. To'raqulova N. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
8. <https://president.uz/uz>.

